



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNING AHAMIYATI

**Xoshimova
Dilraxon
Dilmurodjon qizi**

*Qo'qon universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

Abstract

Ushbu tezisda boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari ishlar va ularning turlari, shakli va o'quvchilar uchun foydali tomonlari, ahamiyati haqida so'z boradi.

Keywords : Boshlang'ich ta'lim, sinfdan tashqari ishlar, mustaqil fikrlash, to'garak, ekskursiya, tadbirlar, ta'lim.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlarini yodga olsak, aslo mublag'a bo'lmaydi: "Hozirgi zamonda hamma jabhalarda ilm, bilim va salohiyat suv bilan havoday zarurligi, har qaysi davlat faqatgina shu asosda taraqqiyotga erishishi, sodda qilib aytganda, inson bilak kuchidan ko'ra ilm kuchi bilan ko'proq daromad va obro' - e'tibor topishi mumkinligini hammamiz yaxshi anglaymiz". Albatta, chunki bu jamiyatda yashaydigan inson hayotiy faoliyatga tayyorlanar ekan, jumladan yosh pedogoglarni oladigan bo'lsak, o'quvchilarning rivojlanishi, tafakkurini yuksaltirishda o'quv jarayoniga ilg'or texnologiyalarni kiritish, o'quvchilarning erkin va mustaqil fikrlash, ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishni taqazo etadi. O'quvchilarning shunday tarzda rivojlanib borishi, barkamol shaxs bo'lishi uchun avvalo, o'qituvchi o'z ustida ishlashi va har bir darsga "Men bugungi dars jarayoniga qanday yangilik bilan kirib, darsni qiziqarli tashkil qila olaman", yo bo'lmasa, "Darsdan tashqari ishlarni qay tarzda tashkil qilsam, o'z maqsadimga tezroq va samaraliroq erisha olaman", deya o'ziga savol berishi, kreativ g'oyalar izlab topishga intilishi jamiyatda yetuk shaxs voyaga yetishishiga ildam qadam tashlab, jon-jahdi bilan kurashishi darkor. Shu tarzda ta'lim uzluksiz davom eta boshlaydi. Shunday ekan, boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'limning eng muhim bo'g'inidir. Shu asnod, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishishi uchun sinfdan tashqari ishlarning o'rni beqiyosdir.

Maktabning o'quvchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlaridan tashqari xilma xil ta'lim-tarbiya ishlari "Sinfdan tashqari ishlar" nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktabda ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini

yo'lga qo'yish shakllaridan biridir. Sinfdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotiy faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Masalan, o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlaridagi o'quv – tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlariga, ijobiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishiga katta imkoniyat yaratadi. Bu ishlar bolalarning qiziqishi, xohish-istaklari va ehtiyojlariga muvofiq tarzda, ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. Sinfdan tashqari ishlarining o'ziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar boshlang'ich o'quvchilarni yetuk, barkamol shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin: fan to'garaklari, mohir qo'llar to'garaklari, duradgorlik, sport, badiiy havaskorlik to'garaklari. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlik konferensiyasi va baxs- munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy- ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat bayram kechalari, to'garak mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki bu mashg'ulotlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1993-yilda «Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi tasdiqlangan. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil CBnazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi. Sinfdan tashqari ishlarining ta'limiy ahamiyati – o'quvchilarga qo'shimcha bilim, malaka va ko'nikmalar berish. Tarbiyaviy ahamiyati – o'quvchilarning ijodiy faoliyat korsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash. Sinfdan tashqari ishlarining samaradorligini oshirish avvalo, komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarining turli xil shakllari mavjud: Masalan: og'zaki, amaliy, ko'rgazmali ish usullari.

Og'zaki ish usullariga turli axborotlar, majlislar, ertalabki yig'inlar, ma'ruzalar, kitobxonlar konferensiyalari, munozaralar, uchrashuvlar, og'zaki gazetalar, radiojurnallar kiradi. Sinfdan tashqari og'zaki "Kitobxonlar konferensiyasi" da boshlang'ich sinf o'quvchilariga har xil turdagi albatta, yoshiga mos, qiziqarli kitoblar tavsiya etiladi va ularga o'qib olishlari uchun ma'lum bir muddat beriladi. Ular shu kunga qadar berilgan vaqtda kitoblarni o'qiydilar va o'zlari o'qigan kitob bo'yicha "Kitoblar konferensiyasi"da og'zaki usulda qatnashadilar. Bu usulda o'quvchilarning og'zaki nutqi rivojlanadi, dunyoqarashi kengayib, hayotga salohiyati ortadi hamda shu bilan birga ular taqdirlanib bundanda yuksak marralarga erishishga harakat qiladilar.

Amaliy ish olib borish usullari tarkibiga esa turli joylarga sayohatlar, sport musobaqalari, bilimlar bellashuvi, iztoparlar ish faoliyati, yosh tabiatshunoslar

to'garaklari, shanbaliklar kiradi. Bu usullar bolalarda juda katta qiziqish uyg'otadi. Jumladan, sayohatga chiqqanlarida ular ko'zida quvonchni ko'rasiz, albatta, bolalar qiziqarli sayohatlarni juda yaxshi ko'radilar shu bilan birga ular qadimiy meroslarimizni, qadimiy tariximizni o'rganadilar. Yo bo'lmasa, sport musobaqalarini olaylik. Sport musobaqalarida ham o'quvchilarning tirishqoqligini ko'rib quvonasiz kishi, bilimlar bellashuvini olasizmi, boshqa mashg'ulotlarni bularning barchasi o'quvchilarga o'zgacha ruh, o'zgacha kayfiyat, o'zgacha hayotga muhabbat bag'ishlaydi.

Ko'rgazmali ish usullariga maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar ko'rgazmalari kiradi.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarning turlari ham ko'p. Adabiy kechalar o'tkazish, ekskursiya, turli bayramlar va tadbirlar o'tkazish, to'garaklar tashkil etish, shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ko'rik tanlovlar bunga misol bo'la oladi. Adabiy kechalarga misollar Navoiyxonlik, Boburning tavallud kuniga bag'ishlangan kecha...

Ekskursiya. Ekskursiya ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi va ekskursiyadan oldin o'quvchilarga topshiriqlar beriladi. Muzeylarga ekskursiyaga borish, metro bekatlari bo'ylab sayohat, davlat kutubxonalariga tashrif, teatr, kino...

Bayram va tadbirlar- bunga mavsumiy bayramlarni kiritishimiz mumkin. Bayram va tadbirlar ssenariy asosida tashkil etiladi. Shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar. Uchrashuv jonli muloqot tarzida tashkil etiladi. Uchrashuvga o'quvchilar yaxshi biladigan shoir va yozuvchilarni taklif etish maqsadga muvofiq. Mehmon bolalar adabiyoti vakili bolishi lozim.

Ko'rik tanlovlar. Bu ko'rik tanlovlar sinflar ichida yoki sinflararo bo'lishi mumkin. Masalan: Yilning eng bilimdon o'quvchisi.

To'garaklar. To'garaklar ma'lum bir fan asosida tashkil etiladi. To'garak uchun yillik ish reja tuziladi. Masalan: Yosh xattot, Ona tilim – jon-u dilim.

To'garak sinfdan tashqari ishlarning asosiy turi bo'lib, u o'quvchilarning doimiy barqaror tarkibi bilan ish ko'radi. To'garaklarda yangi mavzu o'tilmaydi, dars jarayonida olingan bilimlar mustahkamlanadi, sinf ishlari tahlil qilinadi. Darslikdan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan ham foydalanish mumkin. To'garakka a'zo bo'lish ixtiyoriy, ammo uning mashg'ulotlarida ishtirok etish majburiydir. To'garak a'zolari 20 tadan oshmasligi lozim. Boshlang'ich sinflarda to'garak mashg'ulotlari birinchi sinfnig ikkinchi yarim yilligidan boshlanadi. To'garak uchun ajratildan soat: 1-sinf : 17 soat (haftada bir marta), 2-4-sinflarda: 34 soat (haftada bir marta)

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qolibiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bolishlari lozim. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar – o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashini tog'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'lga ega bo'lishi, xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan, xalq ta'limi tizimida

ham o‘‘sib kelayotgan yosh avlod ta‘lim-tarbiyasi bilan borliq jarayonini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Manaviyat va marifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish tog‘risida»gi farmonida ko‘rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma‘naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an‘analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini chuqurlashtirish va kengaytirishga, o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini orttirishga, layoqatli, qobiliyatli bolalarni topish, talabchanlik va irodani tarbiyalashga, mehnatga muhabbatni, mustaqillikni, uyushqoqlikni va jamoatchilikni tarbiyalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Matnazarova K.O “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” darslik Toshkent 2014.
2. E.M Xudoynazarov “Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlar” o‘quv qo‘llanmasi.
3. Qizi, I. M. I. (2021). Mohlaroyim nodira's skill in using a satellite. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1048-1052.
4. Imomaliyeva, M. I. (2021, April). THE EVOLUTION OF METAPHORICAL MEANING. In *E-Conference Globe* (pp. 25-26).
5. Otto, M., & Thornton, J. (2023). MAKTABGACHA INKLYUZIV TA‘LIM SHAROITIDA BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 408-411.
6. Imomaliyeva, M. (2024). NODIRA MELODIES OF NAVOI. *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 121-123.
7. Musharrafxon, I., & Nigora, M. (2024). YOSH AVLODGA KITOBXONLIK KO‘NIKALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O‘RNI. *Kokand University Research Base*, 216-219.